

TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYIDA SAQLANAYOTGAN MEROS



Qudratova Sevara Botir qizi

Temuriylar tarixi davlat muzeyi
yetakchi mutaxassisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21218007>

Annotatsiya. Ushbu maqolada toshbosma (litografiya) san'atining vujudga kelishi, Sharq mamlakatlari va O'rta Osiyoda tarqalishi hamda uning milliy kitobat madaniyati rivojidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondida saqlanayotgan Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarining 1907-yilda Toshkentda nashr etilgan toshbosma nusxasi hamda "Shohnomai Boysung'uriy"ning tarixiy, badiiy va ilmiy ahamiyati tahlil qilingan. Asarning nashriy xususiyatlari, badiiy bezaklari, illyustratsiyalari va muzey fondidagi o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Toshbosma, litografiya, Shohnoma, Abulqosim Firdavsiy, Shohnomai Boysung'uriy, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, qo'lyozma, miniatyura, kitobat san'ati, madaniy meros, Boysung'ur Mirzo, muzey fondi, nasta'liq yozuvi, illyustratsiya.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi xalqimizning tarixiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarini to'plovchi, saqlovchi, namoyish etuvchi va ilmiy tadqiq etuvchi maskandir. Muzeyning asosini fondlar tashkil etadi. Uning fondida O'zR Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 26-maydagi 259-sonli qaroriga asosan dastlab 720 ta eksponat mavjud bo'lgan.¹ Bugungi kunda muzey ilmiy xodimlarining sa'y-harakatlari tufayli muzey fondidagi eksponatlar soni bir necha barobar ortgan.

Hozirgi kunda muzey fondlari arxeologik topilma, numizmatika, me'moriy qoplama, tosh, shisha, spool, metall, chinni, qurol-aslaha, kashtado'zlik, zargarlik buyumlari, libos, yog'och, geraldika, kartinalar, miniatyura kabi kolleksiyalarga ega. Bundan tashqari muzey fondida noyob qo'lyozma va toshbosma kolleksiyasi mavjud. Muzey fondi O'zbekiston va yaqin qo'shni mamlakatlar tarixi, san'atini o'rganish uchun imkoniyat yaratadi.

So'nggi yillarda Temuriylar tarixi davlat muzeyi o'z fondini boyitish maqsadida XIX–XX asrlarga oid toshbosma asarlarni yig'ish, restavratsiya qilish va ilmiy o'rganish ishlarini faol amalga oshirmoqda.

Ushbu maqolada muzey fondida saqlanayotgan, alohida tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan noyob toshbosma nusxalardan biri — "Shohnoma" haqida so'z yuritiladi. Mazkur asarning toshbosma nusxasi xususida batafsil to'xtalishdan avval, uning buyuk muallifi hamda "Shohnoma" asarining yaratilish tarixi va ahamiyatiga qisqacha nazar tashlash maqsadga muvofiqdir.

¹ Temuriylar tarixi davlat muzeyi durdonalari. – Toshkent, 2017.-19.

“Shohnoma” asarining muallifi Hakim Abulqosim Firdavsiy hijriy-qamariy 329-yil (milodiy 940-yil)da Tus viloyatining Boj qishlog‘ida, mulkdor dehqon oilasida tavallud topgan. U forsiy she‘riyat va ilm-fan olamida benazir iste‘dod sohibi sifatida tanilib, jahon adabiyotining eng buyuk dostonnavislaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Firdavsiyning “Shohnoma” asari esa nafaqat Sharq, balki butun jahon adabiy merosining eng nodir durdonalaridan biri hisoblanadi. Shoir qariyb 60 ming baytdan iborat ushbu ulkan asarni ko‘p yillar davomida, fors tilining boy imkoniyatlaridan mohirona foydalanib yaratgan. Mazkur doston o‘zining badiiy yuksakligi va epik ko‘lami bilan qadimgi yunon shoiri Gomerning mashhur epik asarlari bilan tenglashtirib baholanadi.

“Shohnoma” asari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan bo‘lib, uning o‘zbek tiliga o‘girilishi milliy adabiyotimiz rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, ushbu tarjimalar o‘zbek shoir va adiblarini Firdavsiy ijodi hamda “Shohnoma” dostoni yuzasidan qator ilmiy va badiiy tadqiqotlar olib borishga ilhomlantirgan.

Taniqli eronlik firdavsiyshunos olim doktor Jalol Xoliqiy Mutlaq “Shohnoma”ning eng mo‘tabar nusxalaridan birini tuzatishlar va izohlar bilan tayyorlab, nashr ettirdi. U nashrga tayyorlagan va tanqidiy matni bilan 8 jildda “Iranika” nashriyotida bosilib chiqqan “Shohnoma”, ba‘zi olimlarning fikriga ko‘ra, eng yaxshi nusxalardan biri hisoblanadi. Firdavsiy “Shohnoma”sidagi dostonlarning ixcham mazmuni doktor Jalol Xoliqiy tomonidan amalga oshirilgan nashrdan olingan bo‘lib, alohida ilmiy qimmatga egadir.²

Abulqosim Firdavsiy xalq og‘zaki ijodida shakllangan afsona va rivoyatlardan, ayniqsa ulardagi qudratli xarakterlarga ega obrazlardan o‘z badiiy g‘oyasini yoritishga xizmat qiladiganlarini saralab, mukammal kompozitsiyaga ega ulkan epopeya yaratdi. “Shohnoma” tashqi tuzilishiga ko‘ra, undagi voqealar shohlar hukmronligi davrlariga qarab tartiblangan bo‘lib, asar nomi ham “shohlar kitobi” ma‘nosini anglatadi. Biroq uning mazmun-mohiyatiga chuqurroq nazar tashlansa, bu asar aslida xalq tasavvurida yaratilgan va asrlar davomida e‘zozlab kelingan qadimiy qahramonlar, jasur bahodirlar hamda oddiy mehnatkash insonlar haqidagi qissalardan tarkib topganini anglash qiyin emas.

“Shohnoma” yuksak darajada tartibga solingan, kompozitsion jihatdan mukammal qurilgan epik asardir. Abulqosim Firdavsiy ushbu ulkan dostonida ko‘plab falsafiy g‘oyalarni ilgari surib, muhim ijtimoiy muammolarni badiiy talqin etadi. Asarda turli xarakterdagi qahramonlar mahorat bilan yaratilgan, tabiat manzaralari va jang sahnalari esa yuksak badiiy tasvir vositalari orqali ifodalangan.

“Shohnoma” nafaqat yirik badiiy yodgorlik, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy ruhi va ma‘naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan nodir asardir. Abulqosim Firdavsiy ushbu doston orqali adolat, vatanparvarlik, mardlik va insonparvarlik g‘oyalarini ulug‘lab, jahon adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Shu bois “Shohnoma” asrlar davomida o‘zining badiiy va ma‘naviy ahamiyatini yo‘qotmagan buyuk epik meros sifatida qadrlanadi.

Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, Temuriylar davrida Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» asariga yuksak e‘tibor qaratilib, u ma‘naviy-siyosiy tarbiya vositasi va monumental miniatyura san‘atining cho‘qqisiga aylantirildi. Jumladan, Hirotida, Temuriylar saltanati davrida Shohrux Mirzoning o‘g‘li Boysung‘ur Mirzo boshchiligida ushbu asarning turli qo‘lyozma nusxalarini to‘plab, birinchi bor to‘liq va mukammal nusxada yaratilgan. Mazkur qo‘lyozma Ja‘far Tabriziy tomonidan 1425-1430-yillari ko‘chirilgan. Kitob 20 ta rang-barang, yuksak did bilan ishlangan miniatyuralar va zarhal naqshlar bilan bezatilgan bo‘lib, ular Hirot miniatyura maktabining

² Firdavsiy, Abulqosim. Shohnoma: Saylanma. Toshkent, 2012. 188-4.

cho‘qqisi hisoblanadi. Boysung‘ur Mirzo «Shohnoma»ning bu nusxasiga muqaddima yozadi va bu adabiyot tarixida «Boysung‘ur muqaddimasi» nomi bilan mashhurdir. Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondida saqlanayotgan noyob qo‘lyozma va toshbosma asarlar orasida “Shohnomai Boysung‘uriy” alohida ahamiyatga ega. Mazkur asar Temuriylar davrida kitobat san‘ati, xattotlik va miniatyura maktabi yuksak taraqqiy etganining yorqin dalili hisoblanadi. Boysung‘ur Mirzo homiyligida yaratilgan ushbu qo‘lyozma o‘zining nafis bezaklari, yuksak badiiy saviyasi va tarixiy qimmatini bilan Sharq qo‘lyozmachilik san‘atining eng nodir namunalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi.

Asar sahifalarida mujassam bo‘lgan betakror miniatyuralar, zarhal naqshlar hamda mukammal xattotlik namunalari o‘sha davrning estetik qarashlari va san‘at an‘analarini aks ettiradi. Bugungi kunda “Shohnomai Boysung‘uriy”ning muzey fondida saqlanishi nafaqat Temuriylar davri madaniy merosini o‘rganish, balki uni keng jamoatchilikka targ‘ib etish va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ilmiy hamda ma‘rifiy ahamiyat kasb etadi.

“Shohnoma”, Firdavsiy Boysung‘ur Mirzo varianti. Qo‘lyozma ko‘k rangdagi supermuqovaga ega bo‘lib, kitobning muqovasi ham ko‘k mato bilan qoplangan. Muqovaning bunday ishlanishi asarning saqlanish darajasini ta‘minlash bilan birga, uning badiiy va estetik qiymatini ham oshiradi.

Asar 1971-yilda Tehron shahrida nashr etilgan bo‘lib, 74 betdan iborat. Kitob fors, ingliz, fransuz va nemis tillarida tayyorlangan. Nashrning ko‘p tilli shaklda chop etilishi uning xalqaro ilmiy va madaniy ahamiyatini ko‘rsatib, “Shohnomai Boysung‘uriy”ning jahon madaniy merosi sifatida keng jamoatchilik va tadqiqotchilar e‘tiboriga havola etilganidan dalolat beradi.

Asar qog‘ozga bosilgan. Tayyorlanish texnikasi — bosma nashr. O‘lchami 46 × 35 sm ni tashkil etadi. Eron Islom Respublikasi elchixonasidan muzeyga sovg‘a.³

Temuriylar tarixi davlat muzeyida saqlanayotgan 1907-yilda nashr etilgan “Shohnoma” asarining toshbosma⁴ nusxasi o‘zbek litografiya san‘atining yuksak namunalaridan biri hisoblanadi.

Toshbosma (litografiya) — qadimiy matbaa texnologiyasi bo‘lib, u ohaktosh sirtiga yog‘li bo‘yoq yordamida yozuv va tasvir hosil qilish hamda uni qog‘ozga ko‘chirish usuliga asoslanadi. Bu usul 1798-yilda nemis ixtirochisi A. Zenefelder tomonidan yaratilgan.⁵ Litografiya o‘yma gravyura va ksilografiya kabi an‘anaviy bosma texnologiyalar o‘rniga kirib kelib, XIX asr boshlaridayoq Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida, shu jumladan Rossiyada ham keng qo‘llanila boshladi.

Sharq mamlakatlarida esa toshbosma san‘ati 1818-yilda Eronda, 1830-yillardan boshlab esa Markaziy Osiyo hududlarida paydo bo‘lgan. Mazkur texnologiya diniy, adabiy, ilmiy va o‘quv adabiyotlarini nashr etish orqali milliy ma‘naviyat va kitobat madaniyatining yuksalishiga xizmat qildi.⁶

Toshbosma san‘atining Sharqqa kirib kelish jarayoni bosma madaniyatining butun Osiyo bo‘ylab yoyilishi bilan bog‘liqdir. Eronda 1818-yilda birinchi litografiya bosmaxonasi tashkil etilgan bo‘lsa, Rossiyada bu texnologiya 1816-yilda Peterburgda, 1832-yilda esa Orenburgda yo‘lga qo‘yilgan.⁷ O‘rta Osiyoda esa dastlabki toshbosma bosmaxona 1873-yilda Xivada ish boshlagan.

³ Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondi VF 31/58

⁴ Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondi. KK-199

⁵ Alois Senefelder. Vollständiges Lehrbuch der Steindruckerey. München, 1818.12-15.

⁶ Sheglova O. P. Iranskaya litografirovannaya kniga. Moskva, 1978.25-27.

⁷ Иванов П. П. Книгопечатание в Средней Азии. Ташкент, 1960.45-47.

XIX asr oxiriga kelib Xiva, Buxoro, Toshkent, Samarqand, Qo‘qon va Andijon kabi madaniyat markazlarida bosmaxonalar faoliyat yurita boshladi. Ayniqsa, Toshkent shahri bu borada yetakchi markazga aylandi. Bu jarayon o‘zbek milliy matbaachilik tarixida yangi bosqichni boshlab berdi.

O‘zbekistonda toshbosma usuli XIX asrning so‘nggi choragida keng rivojlandi. Turkistonda 1868-yilda tashkil etilgan dastlabki bosmaxonalar “Turkestanskiye vedomosti” va “Taraqqiy” singari nashrlarni chop etish orqali matbuotning shakllanishiga zamin yaratdi. 1883-yilda “Turkiston viloyatining gazetasi”ning chiqa boshlashi esa bosma madaniyat taraqqiyotida muhim voqea bo‘ldi.⁸

Toshbosma orqali diniy, adabiy, ilmiy va darsliklar keng ommaga tarqatildi. Natijada kitoblar arzonlashdi, o‘qish imkoniyati kengaydi, milliy ma’naviyat va ilmiy fikrlash darajasi yuksaldi.

Toshbosma nashrlar orasida Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”, “Saddi Iskandariy”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar” asarlari, shuningdek, jadidchilik harakatining ilk darsliklari — “Muallimi avval”, “Adibi avval”, “Adibi soniy” alohida o‘rin egallaydi.⁹

Bundan tashqari, Mashrab, Ogahiy, Muqimiy, Furqat kabi shoirlarning devonlari ham litografiya usulida nashr etilib, xalq orasida keng tarqalgan. Shu tariqa toshbosma o‘zbek madaniy hayotida savodxonlik va ma’naviy yuksalish omiliga aylandi.

Muzey xazinasida saqlanayotgan “Shohnoma” asari Abulqosim Firdavsiyning o‘zbek tilidagi rasmi, nasriy tarjimasi. 1326 h.y (1907 m.y.)da Toshkentdagi G‘ulomiy al-Husayniy bosmaxonasida nashr etilgan. Kitobning hajmi 567 sahifa, o‘lchami 35×26 sm, yozuvi nasta‘liq, muqovasi to‘q yashil, qovurg‘asi qizil charmdan ishlangan. Kitob Mulla Sayid Akbar va Mullo Murtazo harakati bilan nashr qilingan.

Birinchi sahifa an’anaviy tarzda naqshlar bilan bezatilgan bo‘lib, unda asosiy ma’lumot matni joylashgan. Pastki qismida esa: “parovaya litografiya, Aripjonova S. Toshkent. Dar matbaa nomi Chiromiy Al-G‘ulomi al-Husayniy voqe‘i fi ash-Shosh matbu’ qilingan” degan yozuv mavjud.

2–3-sahifalarda asarning mundariyasi joylashgan bo‘lib, u o‘rtacha kattalikdagi nasta‘liq yozuvida bitilgan. 4-sahifada esa unvon naqshi mavjud. Kitobning eng muhim jihatlaridan biri — undagi 40 ta illyustratsiyadir. Ular “raqami kamtarin Rahmatillo” yoki “al-faqir Rahmatillo ibn Mullo Abdushukur” deb qayd etilgan rassom tomonidan chizilgan.

Bu illyustratsiyalar Sharq miniatyura san’ati ta’sirida chizilgan bo‘lib, kompozitsiya, rang va harakat ifodalarida realizm va simbolizm uyg‘unlashgan. Rassom Rahmatillo ijodi Turkiston toshbosma rassomchiligida ilk professional bosqichni namoyon etadi.

Xotima 567-sahifada joylashgan bo‘lib, unda 17 qator matndan so‘ng 5 qator to‘rt ustunli she‘r, 4 qator oddiy matn va 4 ustunda 3 qatorli xotima she‘ri bitilgan.

Ushbu kitob muzey xazinasiga ustozimiz, jonkuyar olim, t.f.d., professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi A.A. Madraimov tomonidan hadya qilingan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan toshbosma kitob nafaqat o‘z davrining bosma texnologiyasi namunasi, balki Temuriylar davridan meros qolgan kitobat an‘analarining uzviy davomidir. Har bir nashr o‘zida Sharq xattotligi, bezak san’ati va matbaa madaniyatining uyg‘unligini mujassamlashtirgan.

⁸ Бартольд В. В. Очерки по истории книжного дела в Средней Азии. Москва, 1925.110-114.

⁹ Беннигсен А., Лемерсье-Келькеж Ж. Мусульманское возрождение в Центральной Азии. Париж, 1986.63-65.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondida saqlanayotgan “Shohnoma”ning toshbosma nashri va “Shohnomai Boysung‘uriy” qo‘lyozmasi xalqimizning boy tarixiy, madaniy va ma‘naviy merosini o‘zida mujassam etgan noyob yodgorliklar sirasiga kiradi. Ushbu asar nafaqat Abulqosim Firdavsiy ijodining yuksak namunasi, balki Sharq xalqlarining ko‘p asrlik kitobat, xattotlik, miniatyura va matbaachilik an‘analarini o‘rganishda muhim manba vazifasini ham bajaradi.

Maqolada tahlil qilingan toshbosma “Shohnoma” nusxasi XIX–XX asrlar o‘zbek litografiya san‘atining rivojlanish darajasini aks ettirsa, “Shohnomai Boysung‘uriy” esa Temuriylar davri madaniy yuksalishi, kitob bezagi va miniatyura san‘atining eng yuksak namunalardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarlar orqali Sharq kitobat madaniyatining taraqqiyot bosqichlari, badiiy-estetik qarashlari hamda ilm-fan va adabiyotga bo‘lgan yuksak e‘tibor yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, “Shohnoma”ning turli davrlarda yaratilgan qo‘lyozma va toshbosma nusxalari Firdavsiy ijodining asrlar davomida o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini, uning g‘oyalari va badiiy merosi turli xalqlar madaniyatiga chuqur ta‘sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi. Asarning fors, o‘zbek va boshqa tillarda keng tarqalishi uning umuminsoniy qadriyatlarini targ‘ib etuvchi jahon madaniy merosi namunasi ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda muzey fondlarida saqlanayotgan bunday nodir asarlarni ilmiy jihatdan o‘rganish, kataloglashtirish, restavratsiya qilish va keng jamoatchilikka targ‘ib etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, bu kabi madaniy boyliklar xalqimizning tarixiy xotirasini asrash, milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlash hamda kelajak avlodlarni boy ma‘naviy meros ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois “Shohnoma”ning toshbosma nashrlari va “Shohnomai Boysung‘uriy” kabi noyob asarlar milliy madaniy merosimizning bebaho durdonalari sifatida doimo e‘zozlanishi va chuqur tadqiq etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abulqosim Firdavsiy Shohnoma tanlangan dostonlar. Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1984. 679 b.
2. Alois Senefelder. Vollständiges Lehrbuch der Steindruckerey. München, 1818. 370 c-12-15.
3. Firdavsiy, Abulqosim. Shohnoma: Saylanma. – Toshkent.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012. 188 b.
4. O‘zbekiston diplomatiyasi tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha) / O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti. 6-jild. - Toshkent.: «O‘zbekiston», 2019. 508 b.
5. Temuriylar tarixi davlat muzeyi durdonalari. - Toshkent.: “Mashhur press”, 2017. 320b.-19.
6. Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondi. KK-199. VF 31/58.
7. Бартольд В. В. Очерки по истории книжного дела в Средней Азии. Москва, 1925. 144 с. -110-114.
8. Беннигсен А., Лемерсе-Келкеж Ж. Мусулманское возрождение в Центральной Азии. Париж, 1986. 286с -63-65.
9. Иванов П. П. Книгопечатание в Средней Азии. Ташкент: Фан, 1960. 156 с.-45-47.
10. Шеглова О. П. Иранская литографированная книга. - Москва.: 1978. 253 с.-25-27.